

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.76.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIMATOV RUZALI YOQUBOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSIDA MUHOFAZA ETILADIGAN  
TABIY HUDUDLARINING FLORASI  
(O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA)**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
биологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the dissertation for a PhD in  
biological sciences**

**Ruzimatov Ruzali Yoqubovich**

Farg‘ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining florasi (O‘zbekiston Respublikasi hududida) ..... 3

Рузиматов Рузали Ёкубович

Флора охраняемых природных территорий Ферганской долины  
(на территории Республики Узбекистан) ..... 21

**Ruzimatov Ruzali Yoqubovich**

Flora of protected natural areas of the Fergana Valley (on the territory of the Republic of Uzbekistan) ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 42

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.76.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIMATOV RUZALI YOQUBOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSIDA MUHOFAZA ETILADIGAN  
TABIY HUDUDLARINING FLORASI  
(O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA)**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/B914 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hamidov G'ulom Hamidovich**

biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xamrayeva Dilovar Tolibdjonovna**

biologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

**Turginov Orzimat Turdimatovich**

biologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.76.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28-iyul kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Namangan davlat universitetining majlislar zali. Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 16-iyul kuni tarqatildi.  
(2025-yil 16-iyuldagi №30-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.E.Zaynabiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**X.E.Ergasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.B.Dexqonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ekotizimlardagi biologik xilma-xillik, jumladan umumiy floralar tarkibini mahalliy darajada o'rganish, undagi kamyob va muhofazaga muhtoj turlar tarkibini aniqlash hamda ularga bo'layotgan tashqi ta'sirlari ko'lamini baholashda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o'ziga xos hisoblanadi. 2025-yil mart oyi holatiga ko'ra, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'yicha Butunjahon ma'lumotlar bazasidagi (The World Database on Protected Areas, WDPa) qaydlarning 303313 tasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan iborat bo'lib, 244 mamlakatni qamrab oladi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga e'tibor ko'proq qaratilayotganligidan dalolat beradi. So'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida joylashgan tabiat yodgorliklarini floristik tarkibini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xususan, tabiat yodgorliklarining tabiiy florasini o'rganish va muhofazaga muhtoj turlar tarkibini shakllantirish, ularning bioekologiyasi hamda muhofaza choralari ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Muhofaza etiladigan hududlarga nisbatan kam o'rganilgan hamda maydoni jihatdan kichik hududlarni tashkil etuvchi tabiat yodgorliklarining florasini saqlab qolishga, mavjud tabiat yodgorliklaridagi kamyob va endem turlarning tarqalish xaritalarini belgilashga, lokal populyatsiyalar tarkibiga aniqlik kiritishga va baholashga, turli muhit omillari, ayniqsa, antropogen omillar ta'sirida populyatsiyadagi o'zgarishlar dinamikasini ilmiy asoslashga, shuningdek, tabiat yodgorliklarining o'ziga xos jihatlari ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning floristik tarkibini aniqlash, biohujjatlashtirish va kamyob hamda endem turlarni saqlab qolish choralari ko'rish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "O'rmonlarni qo'riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar xususan, tabiat yodgorliklarining florasini o'rganish, to'rt tizimli xaritalash asosida turlar xilma-xilligi va yig'malar zichligini aniqlash, kamyob va muhofazaga muhtoj turlar tarkibini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-son "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi PQ4247-son "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy guruhlari hisoblangan milliy va tabiat yodgorliklari floristik tarkibini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar G. Rink (2005), J. Meave (2008), M. Bovini et al. (2014), A. Alegro et al. (2023), keng ko'lamdagi tadqiqotlar C. Walker (2023) tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlaridagi qo'riqxonalarining o'simliklar qoplami, floristik tarkibi, kamyob va endem turlarning tarqalishi hamda dorivor o'simliklarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni A.X. Galeeva (2011), V.A. Rubtzov et al. (2016), T.M. Lisenko va boshq. (2018), Y.S. Kraynyuk (2019, 2020), L.E. Riff (2020), T.M. Bragina, Y.S. Borisova (2021), N.A. Ozerova (2023), G.J.Sultangazina et al. (2023) va boshqalarning ilmiy asarlarida ko'rish mumkin.

O'zbekistonning Farg'ona vodiysi qismida joylashgan davlat tabiat yodgorliklari florasi maqsadli ravishda o'rganilmagan va floristik tarkibi shakllantirilmagan.

Qisman Yozyovon va Chust tabiat yodgorliklari bo'yicha ma'lumotlar M. Akbarova, Z. Yusupova (2022), X. Xoshimov va boshq. (2023) ishlarida keltirilgan. Farg'ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlariga chegaradosh mintaqalarda O. Bondarenko (1955), M. Arifxanova (1967), U. Prator, P (1970), K. Tojibayev (2002), V. Mahmudov va boshqalar (2006, 2015) kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan va ko'plab gerbariyalar yig'ishgan. Biroq ushbu tadqiqot ishlari aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning florasi haqida to'liq ma'lumotlarni, jumladan, tur tarkibini aniqlash imkonini bermaydi.

Shu nuqtayi nazardan Farg'ona vodiysida tabiat yodgorliklari florasining zamonaviy konspektini tuzish, to'r tizimli xaritalash, kamyob va endem turlar tarqalishi xaritalarini tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining O'zbekiston florasini to'r tizimli xaritalash davlat dasturi hamda №F5-FA-0-64792 "O'zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi" mavzusidagi fundamental loyihasi (2021-2025) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Farg‘ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (tabiat yodgorliklar) florasining tur tarkibini va lokal populyatsiyalarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklar florasini tur tarkibini aniqlash hamda konspektini tuzish;

floralarning keng ko‘lamli tahlilini amalga oshirish;

tabiat yodgorliklarida tarqalgan kamyob, endem hamda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan turlarini o‘rganish;

Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklarining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Farg‘ona vodiysidagi mavjud tabiat yodgorliklari florasini olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklari florasini taksonomiyasi, tabiat yodgorliklari kesimida aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasi, geografiyasi va qiyosiy tahlillari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada floristikaning zamonaviy hamda klassik metodlari, mashrutli, yarim statsionar, sistematik, areologik, biomorfologik, shuningdek, to‘r tizimli xaritalash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor, Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklari florasining tur tarkibi bo‘yicha 56 oila, 240 turkum, 431 tur aniqlangan va konspekti tuzilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga (2019) kiritilgan milliy endem *Astragalus rubellus* Gontsch. yangi lokal populyatsiyalari aniqlangan;

ilk bor, Farg‘ona vodiysida tabiat yodgorliklarining maydonidan kelib chiqqan holda to‘r tizimli xaritasi 100x100 m<sup>2</sup> va 500x500 m<sup>2</sup> indekslarga ajratilgan, turlar xilma xilligi hamda yig‘malar zichligi aniqlangan;

O‘zbekiston florasini uchun yangi tur – *Sisymbrium orientale* L., Farg‘ona vodiysi uchun yangi invaziv tur – *Symphotrichum graminifolium* (Spreng.) G.L.Nesom aniqlangan va tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi nashri uchun *Astragalus rubellus* Gontsch.ning yangi lokal populyatsiyalari aniqlangan;

Farg‘ona vodiysi tabiat yodgorliklaridan (Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust va Bostonbuva) terilgan 300 turning 2500 nusxadagi gerbariy namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti O‘zbekiston Milliy gerbariyasi (TASH) noyob ilmiy obyektiga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** floristik tadqiqotlarning zamonaviy usullarni qo‘llanilganligi va olingan natijalarning mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot davomida olingan ma‘lumotlarning O‘zbekiston florasining yangi nashrlarida, mamlakat tabiiy florasining to‘r tizimli xaritalash singari fundamental loyihalariga hamda tabiatni muhofaza qilish davlat tashkilotlarining ish faoliyatiga joriy etilganligi, shuningdek, GBIF portalida turlarning joylashuv nuqtalari bilan ma‘lumotlar bazasini joylashtirilganligi, turlar tarkibini shakllantirish uchun O‘zbekiston Milliy gerbariyasi (TASH) kabi yirik

hamda mahalliy Qo‘qon davlat universiteti Biologiya kafedrasida (KD), Farg‘ona davlat universiteti Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasida gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalardan foydalanganligi bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston Respublikasi qismida joylashgan Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust va Bostonbuva tabiat yodgorliklarining floristik tarkibi hamda zamonaviy konspekti tuzilganligi, ushbu yodgorliklarning kamyob va endem turlar tarkibi aniqlanganligi, to‘r tizimli xaritalari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Farg‘ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (tabiat yodgorliklari) bo‘yicha tayyorlangan GAT xaritalari Farg‘ona va Namangan viloyatlarining flora kadastrini tayyorlash hamda terilgan gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) hamda Qo‘qon davlat universiteti Biologiya kafedrasida (KD) gerbariy fondlarini boyitganligi, shuningdek yaratilgan ma‘lumotlar bazasi Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston hududidagi barcha tabiat yodgorliklari florasiga oid ma‘lumotlarni xalqaro miqyosida foydalanishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg‘ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining florasini taksonomik tarkibini va lokal populyatsiyalarini aniqlash natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Farg‘ona vodiysida tabiat yodgorliklaridan (Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust va Bostonbuva) terilgan 300 turning 2500 nusxadagi gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) noyob ilmiy obyektiga fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 28-martdagi 4/1255-696-son ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zR FA Botanika institutining F5-FA-0-64792 “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi” (2021–2025) mavzusidagi fundamental loyihasida hamda turlarning taksonomiyasi, geografiyasi bo‘yicha yangi ma‘lumotlar O‘zbekiston florasining elektron ma‘lumotlar bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan;

Farg‘ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining florasiga oid terilgan 320 dan ortiq turlarning 2200 ga yaqin gerbariy namunalari asosidagi ma‘lumotlar bazasi Bioxilma-xillik to‘g‘risidagi global ma‘lumotlar tizimiga ([www.gbif.org](http://www.gbif.org), GBIF) kiritilgan (Global bioxilma-xillik ma‘lumotlar bazasi, [www.gbif.org](http://www.gbif.org), 2024-yil 26-iyundagi №008 guvohnomasi). Natijada Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston hududidagi barcha tabiat yodgorliklari florasiga oid ma‘lumotlarni xalqaro miqyosida foydalanish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

#### **Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.**

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy (Scopus bazasida indekslangan) jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tabiat yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar, tadqiqot obyekti va metodlari**» deb nomlangan birinchi bobida tabiat yodgorliklarini tashkil etishning asoslari va ahamiyati, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xalqaro va O‘rta Osiyo davlatlarida o‘rganilishi, shuningdek tadqiqot obyekti va metodlari yoritilgan.

Xalqaro va MDH davlatlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH) florasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, tabiat yodgorliklari (TY) va milliy tabiat yodgorliklarining (MY) yuksak o‘simliklar floristik tarkibi ko‘pincha kam ekanligi ko‘rinadi. Xususan, J.D. Brotherson et al. (1978) Navaxo MY (AQSH) florasini uchun 293 tur, Da Kruz Silva et al. (2013) Grota do Angiko TY (Braziliya) uchun 174, N.A. Ozerova va boshq. (2023) “Yashil jar” TY (Rossiya) uchun 323, Y.S. Kraynyuk (2020) “Ifigeniya qoyasi” TY (Rossiya) uchun 211 tur ro‘yxatga olingan.

O‘zbekiston hududida joylashgan METHning 11 tasini TY tashkil etib, ularning floristik tarkibi maqsadli ravishda o‘rganilmagan. Qisman Yozyovon (Akbarova, Yusupova 2022) va Chust (Xoshimov va boshq., 2023) TY florasini tarkibini o‘rganilgan.




**1-rasm. O‘rta Osiyo davlatlaridagi METH soni (METH bo‘yicha Butunjahon ma‘lumotlar bazasi, 2025 bo‘yicha)**

METH bo‘yicha Butunjahon ma‘lumotlar bazasiga (The World Database on Protected Areas, WDPA) ko‘ra, O‘rta Osiyo davlatlaridagi METH soni bo‘yicha

O'zbekiston Qozog'istondan (129 ta) keyin ikkinchi o'rinda (42 ta) turadi (1-rasm). Ushbu ma'lumotlar bazasida Farg'ona vodiysidagi TYlarining faqat uchtasi Mingbuloq, Yozyovon va Chust TYlari kiritilgan ([www.protectedplanet.net](http://www.protectedplanet.net), 2025).

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ro'yxatida esa Farg'ona vodiysida oltita (Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust, Bostonbuva) TY keltirilgan. Tadqiqotlar ushbu TY hududida amalga oshirildi (2-rasm).

Dissertatsiyaning «**Farg'ona vodiysining tabiat yodgorliklari to'g'risida ma'lumotlar**» nomli ikkinchi bobida Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismida joylashgan oltita TYlarining (Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust, Bostonbuva) tashkil etilishi, joylashgan geografik o'rni, maqsadi va vazifalari kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.




**2-rasm. Farg'ona vodiysi TYlarining umumiy ko'rinishi (METH bo'yicha Butunjahon ma'lumotlar bazasi, 2025 bo'yicha)**

Chust TYdan boshqa TYlari asosan qumliklardan iborat bo'lib, maydoni turlicha kattalikda. Maydoni bo'yicha eng kattasi Yozyovon TY (1471,5 ga), eng kichigi Bostonbuva TY (8,5 ga) hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Tabiat yodgorliklarining keng ko'lamli tahlili**» nomli uchinchi bobida Farg'ona vodiysida joylashgan har bir TYlari kesimida taksonomik, geografik, biomorfologik, floraning qiyosiy tahlili va to'r tizimli xaritalash tahlili, floristik topilmalar va yodgorliklar florasini konspektining tuzilishi keltirilgan.

Birinchi bo'limda turlarning taksonomik tahlili keltirilgan. 2022-2025-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida joylashgan Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust, Bostonbuva TYning taksonomik tahlili amalga oshirildi va tur tarkibiga aniqlik kiritildi (3-rasm).

A.P. Xoxryakov (2000) flora turini oila spektrining uchinchi a'zosiga qarab ajratishni taklif qilgan. Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Bostonbuva TY floralari umuman olganda o'xshashlikni namoyon qilishi aniqlandi. Masalan, ushbu TY floralarida yetakchi uchlikni *Asteraceae-Poaceae-Amaranthaceae* oilalari boshqaradi. Chunki bu TY asosan qumliklar va qum barxanlaridan iborat bo'lib, asosan psammofit, efemer hamda galofit o'simliklar uchrashi aniqlandi. Quyida solishtirish uchun Chust va Akbarobod TY floralarining polimorf oila va turkumlari tahlili keltirilgan. Batafsil ma'lumotlar va har bir TY taksonomik tahlillari dissertatsiyada keltirilgan.



**3-rasm. Farg'ona vodiysida TY florasida tahlili**

Chust TY nisbatan tog'li hududga yaqinligi bilan ya'ni quyi adir florasiga xos florani namoyon qiladi. TY hududida boshqa Farg'ona vodiysidagi TYlaridan farqli ravishda turlarga ancha boy. Dastlab, X.Xoshimov va boshqalar (2023) tomonidan Chust TY uchun 34 oila 109 turkum 175 tur o'simliklar ro'yxati shakllantirilgan bo'lsa, keyinchalik maqsadli dala tadqiqotlari olib borilishi hamda yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar tahlil qilinishi natijasida, ushbu TY uchun jami 44 oila 155 turkum 250 turning ro'yxati shakllantirildi.

Chust TY quyi adir florasiga xos florani namoyon qiladi, bu oilalar ketma-ketligi TYda Asteraceae (42 tur), Poaceae (27), Fabaceae (19), Brassicaceae (18), Lamiaceae (17), Boraginaceae (11) ni tashkil qiladi. Bu ketma-ketlik Tog'lio'rtaosiyo provinsiyasiga xos bo'lgan belgilardan biri hisoblanadi (1-jadval).

Akbarobod TY aholi yashash punktlariga yaqin qumli massivlarda joylashganligi bilan ajralib turadi. Akbarobod TY florasida uchun 34 oila 112 turkum 152 tur o'simliklar ro'yxati shakllantirilgan. Yopiq urug'li o'simliklar TY 151 ta tur bilan ishtirok etib, umumiy floraning 99,34% ni tashkil etadi. Ulardan ikki urug'pallalilar (Eudicots) 120 tur (79,47%), bir urug'pallalilar (Monocots) 32 tur (21,19%) bilan ishtirok etadi (2-jadval).

Shuni alohida qayd etish kerakki, Farg‘ona vodiysida ro‘yxatga olingan TYlari Turon provinsiyasi hududida joylashganligi sababli Ochiq urug‘li o‘simliklar (Gymnospermae) bo‘limiga mansub turlar qayd etilmadi. Bu tadqiqot hududning tabiiy geografik xususiyatlariga bog‘liq.

1-jadval

**Chust TY yetakchi polimorf oilalar va turkumlar tahlili**

№	Oilalar	Turkumlar	Turlar	%	Turkumlar	Turlar	%
1	Asteraceae	23	42	16,8	<i>Astragalus</i>	9	3,71
2	Poaceae	18	27	11,15	<i>Artemisia</i>	8	3,30
3	Fabaceae	7	19	7,85	<i>Bromus</i>	5	2,06
4	Brassicaceae	12	18	7,43	<i>Euphorbia</i>	5	2,06
5	Lamiaceae	9	17	7,02	<i>Strigosella</i>	5	2,06
6	Boraginaceae	6	11	4,54	<i>Cousinia</i>	4	1,65
<b>Jami:</b>		<b>74</b>	<b>132</b>	<b>54,54</b>	<b>Jami:</b>	<b>36</b>	<b>14,87</b>
Qolgan oilalar (38)		81	118	47,2	Qolgan turkumlar (146)	214	85,6
<b>Umumiy soni</b>		<b>155</b>	<b>250</b>	<b>100</b>	<b>Umumiy soni</b>	<b>250</b>	<b>100</b>

2-jadval

**Akbarobod TY yetakchi polimorf oilalar va turkumlar tahlili**


№	Oilalar	Turkumlar	Turlar	%	Turkumlar	Turlar	%
1	Asteraceae	19	28	18,18	<i>Astragalus</i>	6	3,94
2	Poaceae	19	27	17,53	<i>Artemisia</i>	5	3,28
3	Amaranthaceae	14	18	11,68	<i>Bromus</i>	4	2,63
4	Fabaceae	8	13	8,44	<i>Tamarix</i>	4	2,63
5	Brassicaceae	7	7	4,54	<i>Amaranthus</i>	3	1,97
6	Boraginaceae	5	6	3,89	<i>Calligonum</i>	3	1,97
<b>Jami:</b>		<b>72</b>	<b>99</b>	<b>65,13</b>	<b>Jami:</b>	<b>25</b>	<b>16,42</b>
Qolgan oilalar (28)		40	53	34,87	Qolgan turkumlar (106)	127	83,56
<b>Umumiy soni</b>		<b>112</b>	<b>152</b>	<b>100</b>	<b>Umumiy soni</b>	<b>152</b>	<b>100</b>

Ikkinchi bo‘limda turlarning geografik tahlili keltirilgan. O‘simlik dunyosining eng muhim belgilaridan biri uning geografik elementlarining tuzilishidir.

Zamonaviy o‘simliklarning yashash joylarini o‘rganish va ularning tasnifi floraning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Farg‘ona vodiysida joylashgan TY kesimida turlarning areologik tahlili amlaga oshirildi. Quyida Yozyovon va Chust TY floralarining areal sinflari bo‘yicha tahlili keltirilgan (4-rasm).

Chust TY nisbatan tog‘li hududga yaqinligi bilan ya‘ni quyi adirda joylashganligi uchun geografik spektri boshqa TYga nisbatan o‘ziga xoslikni namoyon etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bo‘limida turlarning biomorfologik tahlili keltirilgan. Har qanday hududda C. Raunkiaer biomorfologik turlarning (fanerofit, xamefit, gemikriptofit, kriptofit, terofit) nisbati uning iqlimining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin (Serebryakov, 1964). C. Raunkiaer ekvatoridan Shimoliy qutbgacha bo‘lgan o‘simlik dunyosini o‘rganish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar olib borgan va tropik zonada iqlim fanerofit, subtropik zonada terofit, o‘rtacha sovuq zonada esa gemikriptofit, sovuq qutb mamlakatlarida xamefit turlar yuqorililigini ko‘rsatdi (Kurchenko, 2022).



**4-rasm. TYlarining areal sinflari bo‘yicha tahlili: Chust TY (chapda) va Yozyovon TY (o‘ngda)**

Farg‘ona vodiysidagi TYlarining har biri uchun alohida biomorfologik tahlillari amalga oshirildi. Quyida Mingbuloq va Chust TY florasining biomorfologik tahlili keltirilgan. Mingbuloq TY florasida fanerofitlar 18 turni, Chust TYda esa aksincha 7 turni tashkil etadi. Fanerofitlarning biologik spektrda yetakchilik qilishi qolgan Akbarobod, Zilxa, Yozyovon, Bostonbuva TYda ham aniqlandi (3-jadval).

**3-jadval**

**Mingbuloq TY florasida tarkibining biologik spektri**

Taksonlar	Hayotiy shakllari					Jami
	Fanerofit	Xamefit	Gemikriptofit	Kriptofit	Terofit	
Equisetopsida	-	-	-	1	-	1
Eudicots	18	9	35	-	60	122
Monocots	-	-	9	2	19	30
Jami:	18	9	44	3	79	153
Foiz (%) ko‘rsatkichlari	11,76	5,88	28,75	1,96	51,63	100

Chust TY florasida tarkibining biologik spektri bo‘yicha umumiy xulosaga ko‘ra, hudud florasida fanerofit turlar nisbatan eng kam tarqalgan guruhni tashkil etadi. Buni Chust TYning aholi yashash hududlariga yaqin ekanligi ya‘ni antropogen omilning kuchli ekanligi bilan izohlash mumkin. Chunki mahalliy

aholi tomonidan bir necha yillardan buyon daraxt va butalar o‘tin sifatida foydalanib kelinadi (4-jadval).

Bobning to‘rtinchi bo‘limida floraning qiyosiy tahlili keltirilgan. Farg‘ona vodiysidagi Akbarobod, Zilxa, Bostonbuva, Mingbuloq, Yozyovon TYlarining o‘xshashlik darajasi ularning geografik jihatlari va turlar xilma-xilligini hisobga olgan holda bular uchun umumiy qilib hisoblandi.

#### 4-jadval

#### Chust TY florasini tarkibining biologik spektri

Taksonlar	Hayotiy shakllari					Jami
	Fanerofit	Xamefit	Gemikriptofit	Kriptofit	Terofit	
Eudicots	7	14	64	6	124	215
Monocots	-	-	10	8	17	35
Jami:	7	14	74	14	141	250
Foiz (%) ko‘rsatkichlari	2,8	5,6	29,6	5,6	56,4	100

Chust TY uchun Jakkard koeffitsiyenti amalga oshirilmadi. Chunki ushbu TY quyi adir mintaqasida joylashgan bo‘lib, geografik jihatdan mos kelmaydi. Tadqiqot hududi florasini va unga qiyoslanayotgan floralarning ko‘rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan.

#### 5-jadval


#### Qiyoslanayotgan floralarning ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Yozyovon	Akbarobod	Zilxa	Mingbuloq	Bostonbuva
Florada turlarning umumiy soni	179	152	160	153	126
Turkumlar soni	124	112	124	113	97
Oilalar soni	40	34	39	37	35
O‘rtacha 1 ta oiladagi turkumlar soni	3,1	3,29	3,17	3,05	3,37
O‘rtacha 1 ta oiladagi turlar soni	4,47	4,47	4,10	2,46	2,77
O‘rtacha 1 ta turkumdagi turlar soni	-	1,35	1,29	1,35	1,29
O‘zaro o‘xshash turlar soni	-	104	109	116	108
Jakkard o‘xshashlik koeffitsiyenti	-	0,45	0,47	0,53	0,43

Jakkardning o‘xshashlik koeffitsiyenti tahlillari Yozyovon TYga nisbatan amalga oshirildi. Jakkardning o‘xshashlik koeffitsiyenti natijasiga ko‘ra, Mingbuloq va Yozyovon TYlari o‘zaro o‘xshashligi yuqori ekanligi aniqlandi.


Bobning beshinchi bo‘limida to‘r tizimli xaritalash tahlili keltirilgan. Farg‘ona vodiysida joylashgan barcha TYlari maydonidan kelib chiqqan holda to‘r tizimli indekslarga ajratildi. Yozyovon va Mingbuloq TYlarida har bir indeks 500x500 m<sup>2</sup> ga ega mos ravishda 87 ta va 55 tani tashkil etadi. Qolgan Akbarobod, Zilxa, Chust va Bostonbuva TYlarida har bir indeks mos ravishda 100x100 m<sup>2</sup> bo‘lib, 21, 33, 125, 36 ta indekslarga ajratildi va dala tadqiqotlari olib borildi.

Yozyovon TY florasi o‘rganilganda, hudud 87 ta indeksga ajratildi. Bunda eng ko‘p turlar xilma-xilligi 16 tur (species richness) J4 indeksga, eng ko‘p yig‘malar zichligi (collection density) 31 ta namuna J4 indeksga to‘g‘ri kelishi aniqlandi (5-rasm).



**5-rasm. Yozyovon TY: turlar boyligi (chapda), yig‘malar zichligi (o‘ngda)**

Chust TY florasi o‘rganilganda, hudud 125 ta indeksga ajratildi va tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunda eng ko‘p turlar xilma-xilligi 22 tur (species richness) C2, D1, J6, J9, E9 indekslariga, eng ko‘p yig‘malar zichligi (collection density) 29 ta namuna D3 indeksga to‘g‘ri kelishi aniqlandi (6-rasm).



**6-rasm. Chust: turlar boyligi (chapda), yig‘malar zichligi (o‘ngda)**


Bobning oltinchi bo‘limida floristik topilmalar va yodgorliklar florasi konspektining tuzilishi keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekiston florasi uchun avval keltirilmagan yangi tur *Sisymbrium orientale* L. (Brassicaceae) va Farg‘ona vodiysi uchun yangi invaziv tur *Symphyotrichum graminifolium* (Spreng.) G.L.Nesom aniqlandi.

*Sisymbrium orientale* L. (Brassicaceae) O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston florasi uchun yangi tur hisoblanadi. Bu turning flora uchun yangi tur ekanligi

haqida ma'lumotlar chop etildi (German et al., 2023). Ushbu tur O'rta Yer dengizi va janubi-g'arbiy Osiyo mintaqalari bilan chegaralangan bo'lsada, bugungi kunda u Yevroosiyo va Afrikaning boshqa qismlarida, shuningdek, Antarktidadan tashqari barcha boshqa qit'alarda tarqalgan (7-rasm).

*O'rganilgan namunalari.* Uzbekistan. Namangan Province, natural monument Chust, vicinities of Kushtepa, [loose sagebrush community on very gentle stony slope, locally common]. N 41.050507, E 71.076648, h = 804 m a.s.l. 09.04.2023. R. Ruzimatov, S. Ruzimatova (TASH054575 & TASH054577).

*S. graminifolium* (Spreng.) G.L.Nesom (Asteraceae) O'zbekiston florasida uchun invaziv tur bo'lib, tur birinchi marotaba 2018-yilda Buxoro vohasidan qayd etilgan (Esanov, Usmonov 2018). Ushbu tur Farg'ona vodiysi uchun yangi invaziv tur hisoblanadi.



**7-rasm. O'rta Osiyodagi *Sisymbrium orientale* L. birinchi yig'ilgan joyi va gerbariysi (German et al., 2023)**


*O'rganilgan namunalari.* Ферганская област. Памятник Бостонбува. 362 м. н.у.м., N 40.699444, E 71.062383. 19.08.2024, P. Ruzimatov, B. Ekubov, S. Ekubova 781, 782, 783, 784, 785 (U6) (KD).

Dissertatsiyaning **Farg'ona vodiysidagi tabiat yodgorliklarining o'ziga xos jihatlari va amaliy tavsiyalar** deb nomlangan to'rtinchi bobida tabiat yodgorliklarining Farg'ona vodiysi florasida tutgan o'rni, tabiat yodgorliklariga tashqi muhit va antropogen omillarning ta'siri, tabiat yodgorliklarini hududlarini maqbullashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.


Farg'ona vodiysida TY florasining endemizmi unchalik ham yuqori emas. Xususan, barcha TYlarida jami O'rta Osiyoning florasida tarqalgan kamyob va endem turlarning 13 turi, faqat bir tur – *Astragalus rubellus* Gontsch. O'zbekiston florasida endemi, Farg'ona vodiysi endemlari esa 6 turdan iborat. Tadqiqotlar davomida ushbu turlarning TY hududida tarqalishi bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi. *Astragalus rubellus* Gontsch. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga

(2019) 1 maqom bilan kiritilgan. Dala tadqiqotlari natijasida bu turning tabiat yodgorliklarida yangi lokal populyatsiyalari aniqlandi. *A. rubellus* EOO=49 km<sup>2</sup>, AOO=16 km<sup>2</sup> etib belgilangan (8-9-rasmlar).

*O'rganilgan namunalari.* Akbarabad (II) natural monument, 18.04.2023, R. Ruzimatov, S. Ruzimatova 191 (FarDU, TASH); Yazyavan natural monument, 20.04.2023, R. Ruzimatov, M. Ruzimatov 159, 175 (FarDU, TASH); Kuva district, Akbarabad (III) natural monument, 26.04.2023, R. Ruzimatov, B. Ruzimatov 216 (FarDU, TASH); Kuva district, Akbarabad (I) natural monument, 06.05.2023, R. Ruzimatov, B. Ruzimatov 231 (FarDU, TASH); Ферганская область, памятник Акбарабад. 04.05.2024, Турдубоев, Рузиматов, Мадумаров 42 (KD).



8-rasm. *Astragalus rubellus* Gontsch. A) GAT xaritasi; B) GeoCAT xaritasi



9-rasm. *Astragalus rubellus* Gontsch. (Ruzimatov, G'ulomov, 2024)

Farg'ona vodiysidagi Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust, Bostonbuva tabiat yodgorliklarining barchasida antropogen omilning deyarli bir xil ravishda uzluksiz kuchayib borayotganini dala tadqiqotlarida bevosita kuzatildi.

Chust TY florasiga mayda tuyoqli hayvonlarning va antropogen omilning ta'siri yildan yilga kuchayib borayotgani 2022-2025 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlarida bevosita kuzatildi (10-rasm).



**10-rasm. Chust TY: maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi va chorva hayvonlarining o'tlatilishi (avtor, Ruzimatov 2023)**

Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Bostonbuva TYda mahalliy aholi tomonidan qumlarni o'zlashtirish va qurilish materiali sifatida foydalanishi hisobiga ularning maydonlari qisqarib, kamyob va endem o'simliklarning areali tobora qisqarmoqda (11-rasm).




**11-rasm. Mingbuloq TY (indeks B12; avtor, Ruzimatov 2024)**

Bundan tashqari mahalliy aholi o'rtasida asosan avgust-sentyabr oylarida maydoni jihatdan kichik bo'lgan Akbarobod, Zilxa hamda Bostonbuva TYda psammoterapiya uchun ko'plab mahalliy aholi tashrif buyuradi. Bu esa o'z navbatida turlarning yo'q bo'lishiga, kamyob turlarning maydonlari qisqarishiga sabab bo'lmoqda.

Farg'ona vodiysining TYlarida olib borilgan dala tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu yodgorliklardan faqat bittasi Chust TY hududini kattalashtirish zarur deb hisoblaymiz. Farg'ona vodiysining kamyob va endem turlarini muhofaza qilishda Chust TY muhim o'rin tutadi. Xususan, yodgorlik hududida Farg'ona vodiysining kamyob va endem *Astragalus* L., *Cousinia* Cass. turkum turlari tarqalgan. Yodgorlik hududiga yaqin joylashgan ikkinchi tepalikni ham qo'shib

yodgorlik hududini kattalashtirish zarur (12-rasmda qizil chiziq bilan belgilangan). Chust TY hududiga yaqin joylashgan bu katta tepalikda ham kamyob va endem turlar tarqalgan. Qolaversa yodgorlik hududining shimoliy qismida joylashgan tekislik qismini (shuvoqzor bilan qoplangan) yodgorlik hududidan qisqartirish hisobiga ushbu tepalikni ham TY hududiga qo'shish mumkin.

2022-2025-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida Akbarobod, Zilxa, Mingbuloq, Yozyovon, Chust, Bostonbuva tabiat yodgorligidan faqat Yozyovon va Akbarobod (II) tabiat yodgorliklari hududi ekanligini bildiruvchi ko'rsatkich belgilar joylashtirilgan. Biroq ular ham aynan kirish qismlarida joylashgan bo'lib, aniq chegara hududlari va xaritalari mavjud emas.



**12-rasm. Chust TY (sariq chiziq bilan belgilangan). Qizil chiziq bilan belgilangan tepalikni TY hududiga qo'shish tavsiya etiladi.**

Yuqoridagilarni oldini olish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Birinchi navbatda ushbu yodgorliklar kirish va chiqish qismlarida, shuningdek atroflarida TY haqida qisqacha ma'lumotlar yozilgan ko'rsatkich belgilar joylashtirish va ularni mustahkamlash.

- Aholi yashash manzillari qishloqlar, maktablar va mahalla idoralariga TY haqida to'liq ma'lumot beruvchi flayerlar tarqatish;

- Ekologiya inspektorlari tomonidan muntazam brokonerlik, ovchilik va o'simliklarni payhon qilishga qarshi reydlar o'tkazib borish;

- Qumli TY larida aholining psammoterapiya va ekoturizm mavsumlarida mavsumiy chiqindilarni yig'ish uchun chiqindi konteynerlarini bilan ta'minlash va ularni tozalash;

- Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklari atroflarida chorva mollari, mayda tuyoqli uy hayvonlarini betizim boqishni cheklash hamda antropogen omil ta‘sirini kamaytirish uchun ularning atroflarini chuqur zovurlar qazish orqali ushbu TYlarini hozirgi holatini saqlab qolish mumkin.

## **XULOSALAR**

“Farg‘ona vodiysida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining florasini (O‘zbekiston Respublikasi hududida)” mavzusidagi dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor, Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklari florasining tur tarkibi bo‘yicha 56 oila, 240 turkum, 431 tur aniqlandi va konspekti tuzildi. Tabiat yodgorliklarining florasini O‘rta Osiyodagi mahalliy floralarga mansubligini o‘zida aks ettiradi.

2. O‘zbekistonda ilk bor Farg‘ona vodiysida joylashgan tabiat yodgorliklarining tur tarkibini aniqlanganligi O‘zbekistonda METH florasini aniqlashga ketadigan vaqt va iqtisodiy xarajatlarni oldini olishga muayyan darajada xizmat qiladi.

3. Tabiat yodgorliklarning ayrimlarida kamyob va endem turlarning yangi o‘sinh maydonlari aniqlandi. O‘zbekiston Qizil kitobining keyingi nashri uchun aniqlangan yangi o‘sinh nuqtalari va ocherklari ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

4. Kamyob va endem turlarning tahlili Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklari atroflarida chorva mollari, mayda tuyoqli uy hayvonlarini betizim boqishni cheklash hamda antropogen omil ta‘sirini kamaytirish uchun ular atroflarini chuqur zovurlar qazish va ular atroflarida bu tabiat yodgorliklari ekanini anglatuvchi maxsus belgilar qo‘yish orqali saqlab qolish imkonini berdi.

5. Farg‘ona vodiysidagi tabiat yodgorliklarning o‘ziga xos jihati uning aksariyat qismi qumli cho‘l hududlarida joylashganligi hamda psammofit o‘simliklarga boyligi bilan izohlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.B.76.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**РУЗИМАТОВ РУЗАЛИ ЁКУБОВИЧ**

**ФЛОРА ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ  
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ТЕРРИТОРИИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН)**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Наманган – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрировано в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/B914.**

Диссертационная работа выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте научного совета ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Хамидов Гулам Хамидович**

доктор биологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Хамраева Диловар Толибджоновна**

доктор биологических наук, ведущий научный сотрудник

**Тургинов Орзимат Турдиматович**

доктор биологических наук, ведущий научный сотрудник

**Ведущая организация:**

**Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится 28 июля 2025 года в 11:30 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.76.01 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160107, г. Наманган, ул. Бабуршах, дом. 161. Зал заседаний Наманганского государственного университета. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс (+99869) 228-85-02, e-mail: [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бабуршах, дом 161. Тел.: (+99869) 228-85-01).

Автореферат диссертации разослан 16 июля 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 30 от 16 июля 2025 года).

**А.Э.Зайнабиддинов**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

**Х.Е.Эргашева**

Ученый секретарь научного совета, по присуждению ученых степеней, доктор философии по биологическим наукам (PhD), доцент

**Д.Б.Дехконов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире чрезвычайно велика роль охраняемых природных территорий в изучении биоразнообразия экосистем, в том числе на местном уровне состава общей флоры, в определении содержания в ней редких и нуждающихся в охране видов, а также в оценке масштабов происходящего на них внешнего воздействия. По состоянию на март 2025 года 303313 записей во Всемирной базе данных по охраняемым территориям (The World Database on Protected Areas, WDPA) относятся к охраняемым территориям, охватывающим 244 страны, что свидетельствует о том, что охраняемым территориям уделяется все больше внимания. В последние годы важное научно-практическое значение имеет определение флористического состава памятников природы, расположенных в различных регионах мира.

В мире ведутся научные исследования, направленные на изучение естественной флоры охраняемых природных территорий, в частности памятников природы, а также на формирование перечня видов, нуждающихся в охране, изучение их биоэкологии и разработку мер по их защите. Особое внимание уделяется малоизученным и по площади сравнительно небольшим природным памятникам — охраняемым территориям, с целью сохранения их флористического разнообразия, определения ареалов редких и эндемичных видов, уточнения состава локальных популяций и их оценки, научного обоснования динамики изменений в популяциях под воздействием различных факторов окружающей среды, особенно антропогенных, а также выявления уникальных особенностей памятников природы и разработки практических рекомендаций по их охране и рациональному использованию.

В республике за последние годы был проведен ряд работ по определению флористического состава охраняемых природных территорий, биодокументации и принятию мер по сохранению редких и эндемичных видов. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по «коренному пересмотру механизма охраны и защиты лесов»<sup>1</sup>. Из этих задач важное научное и практическое значение имеет изучение флоры охраняемых в нашей стране природных территорий, в частности памятников природы, определение видового разнообразия и плотности сообществ на основе сетевого систематического картографирования, а также определение состава редких и охраняемых видов.

